



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 02 | pp. 62-72 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MINTAQAVIY RAQOBATBARDOSHLIKNI O'LCHOVCHI ASOSIY OMILLARNI BAHOLASH



Duschanov Alisher Sherzod o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot mintaqaviy raqobatbardoshlikni belgilovchi asosiy omillarni aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini tahlil qilish hamda nazariy asoslangan gipotezalar ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot 2018-2025-yillarda chop etilgan ilmiy manbalar asosida an'anaviy hamda tanqidiy adabiyotlar sharhi usulida amalga oshirildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, iqtisodiy omil ta'lim, sog'liqni saqlash va ekologik barqarorlik bilan integratsiyalashgan holda kengroq talqin etilishi zarur. Yoshlar bandligi, ko'p o'lchovli ijtimoiy siyosat, sog'liqni saqlash infratuzilmasini rivojlantirish hamda ta'lim va innovatsiyalarga investitsiyalar mintaqalarning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, transport, ilmiy tadqiqot va ishlanmalar, yuqori texnologiyalar va innovatsion faoliyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: mintaqaviy raqobatbardoshlik, mintaqaviy imij, mehnat bozori, imiy-tadqiqot xarajatlari, yuqori texnologiyali sanoat, innovatsiya.

Аннотация. Исследование проводилось на основе обзора традиционной и критической литературы, основанной на научных источниках, опубликованных в 2018-2025 годах. Результаты показали, что экономический фактор необходимо интерпретировать более широко, интегрируя его с образованием, здравоохранением и экологической устойчивостью. Занятость молодежи, многомерная социальная политика, развитие инфраструктуры здравоохранения и инвестиции в образование и инновации имеют решающее значение для повышения конкурентоспособности регионов. Кроме того, неразрывная связь между транспортом, научными исследованиями и разработками, высокими технологиями и инновационной деятельностью обеспечивает долгосрочный экономический рост.

Ключевые слова: региональная конкурентоспособность, региональный имидж, рынок труда, расходы на НИОКР, высокотехнологичная промышленность, инновации.

Abstract. The study was conducted using a review of traditional and critical literature based on scientific sources published in 2018-2025. The results showed that the economic factor needs to be interpreted more broadly, integrating with education, health care, and environmental sustainability. Youth employment, multidimensional social policy, development of health care infrastructure, and investments in education and innovation are crucial in increasing the competitiveness of regions. Also, the inextricable link between transport, scientific research and development, high technologies, and innovative activities ensures long-term economic growth.

Keywords: *regional competitiveness, regional image, labor market, R&D expenditures, high-tech industry, innovation.*

Kirish

Mintaqaviy raqobatbardoshlik muayyan geografik hududning resurslardan samarali foydalanish va aholi turmush sifatini yaxshilash orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish hamda ijtimoiy farovonlikni oshirish qobiliyatidir [1]. U iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va biznes sohalarini qamrab oluvchi keng ko'lamli omillar majmuasini o'z ichiga oladi [2]. So'nggi yillarda global miqyosda barqarorlikka bo'lgan e'tibor ortishi natijasida ko'plab davlatlar barqarorlik tamoyillarini o'z huquqiy-me'yoriy tizimlariga integratsiya qila boshladilar [3]. Ushbu yondashuv ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal etishga qaratilgan bo'lib, ekologik toza iqtisodiyotga o'tish hamda jamiyat va atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirishga xizmat qiladi [4]. Mintaqaviy raqobatbardoshlik turli tadqiqot yo'nalishlarida barqarorlik maqsadlariga erishishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda [5]. Barqaror rivojlanish odatda "hozirgi avlod ehtiyojlarini kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlariga zarar yetkazmagan holda qondiradigan rivojlanish" sifatida ta'riflanadi [6]. Barqaror raqobatbardoshlik esa "mamlakat unumdorligi darajasini belgilovchi institutlar, siyosatlar va omillar majmui bo'lib, shu bilan birga kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini ta'minlaydi" deb izohlanadi [7].

Storper ta'rifiga ko'ra, raqobatbardoshlik - bu iqtisodiyotning barqaror yoki kengayib borayotgan bozor ulushiga ega korxonalarni jalb qilish va saqlab qolish qobiliyati, shu bilan birga ishtirokchilarning turmush darajasini saqlash yoki oshirish imkoniyatidir [4]. R. Huggins esa raqobatbardoshlikni faqat jamg'arilgan boylik asosida emas, balki ijodkorlik, bilim va atrof-muhit sharoitlariga tayangan holda tushuntiradi [9]. Iqtisodiy raqobatbardoshlik hukumat va biznes o'rtasidagi hamkorlik, tabiiy resurslar, iqtisodiy diversifikatsiya, sifatli ta'lim va barqarorlikka tayanadi hamda iqtisodiy o'sish va farovonlikni ta'minlaydi [10]. U innovatsiya va tadbirkorlikni rag'batlantiradi [11] hamda global moslashuvchanlik darajasini o'lchaydi [12]. Barqaror mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish uchun ta'lim, infratuzilma, ilmiy tadqiqotlar va tartibga solish sohalariga investitsiya kiritishda hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi [13]. Bu esa dinamik iqtisodiy markazlarni shakllantirib, fuqarolar va davlatlar uchun foyda keltiradi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili

Mintaqaviy raqobatbardoshlikni tushunish va baholash uchun nazariy asos mavjud tadqiqotlar va konsepsiyalarga tayangan holda adabiyotlar sharhi orqali shakllantirildi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi an'anaviy (narrative) adabiyotlar tahlilini amalga oshirishdan iborat bo'lib, mavjud ilmiy ishlarni umumlashtirish va tahlil qilishga qaratildi. Ushbu yondashuv mintaqaviy raqobatbardoshlikni belgilovchi asosiy omillarni aniqlash, ular asosida propozitsiyalar ishlab chiqish hamda omillar va mintaqaviy raqobatbardoshlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga imkon berdi.

Adabiyotlar sharhi dolzarb tadqiqotlarni qamrab olib, mavjud ilmiy bo'shliqlarni aniqlash, yangi ilmiy yo'nalishlarni ko'rsatish va mavjud nomuvofiqliklarni tahlil qilish imkonini berdi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot savollarini aniqlashtirish, nazariy va konseptual asoslarni shakllantirishga xizmat qildi.

Barqaror mintaqaviy raqobatbardoshlikka oid adabiyotlar va ma'lumotlar bazalarining keng qamrovli tahlili natijasida nashrlardan o'nta asosiy tadqiqot omili ajratib olindi (1-jadval). Ushbu o'nta omil quyidagilardan iborat: Iqtisodiyot, Mehnat bozori, Kambag'allik va ijtimoiy chetlanish, Sog'liqni saqlash, Ta'lim infratuzilmasi, Atrof-muhit omillari, Transport infratuzilmasi, Fan va texnologiya, Yuqori texnologiyali sanoat hamda Innovatsiya. Har bir ko'rsatkich bo'yicha adabiyotlar sharhi natijalari quyida taqdim etiladi. Har bir omilni chuqur tahlil qilishdan oldin, ularning o'zaro chambarchas bog'liqligi aniqlandi. Tadqiqot jarayonida ushbu omillar alohida-alohida emas, balki o'zaro ta'sir va murakkab bog'lanishlar orqali faoliyat yuritishi ma'lum bo'ldi. Masalan, iqtisodiyotning holati mehnat bozorida ish o'rinlari mavjudligiga ta'sir ko'rsatadi, bu esa o'z navbatida kambag'allik darajasi va ijtimoiy chetlanishga ta'sir qiladi. Xuddi shuningdek, sog'liq ko'rsatkichlari atrof-muhit sharoitlari, ta'lim imkoniyatlari hamda yuqori texnologiyali sanoatning mavjudligi bilan chambarchas bog'liq. Ushbu o'zaro bog'liqliklarni anglash barqaror mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha samarali strategiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

1-jadval. Mintaqaviy darajada raqobatbardoshlikni baholovchi o'nta omil

Omilar	Tegishli tadqiqotlar
Iqtisodiyot	Nickolas, S. Bharti, N. Poveda, C.A. Zallio, M.; Clarkson, P.J.
Mehnat bozori	Marin, A.; Boant, ă, L.F.; T, elinoiu, A.; Darie, G.; Din, M.A.; Meir, S.; Dennis, C.A.
Kambag'allik va ijtimoiy ajralib qolish	O'Donnell, P.; Hannigan, A.; Ibrahim, N.; O'Donovan, D.; Elmusharaf, K.; Sano, Y.; Mammen, S.; Houghten, M
Sog'likni saqlash	Raghupathi, V.; Raghupathi, W.; DeVries, E.; Kathard, H.; Müller, A
Ta'lim	Bertoletti, A.; Berbegal-Mirabent, J.; Agasisti, T.
Atrof muhit va energiya	Neves, A.; Godina, R.; Azevedo, S.G.; Matias, J.C.O. A
Transport	Gavurova, B.; Rigelsky, M.; Mikeska, M.
Yuqori texnologiyali sanoat	Yang, X.; Zhang, H.; Lin, S.; Zhang, J.; Zeng, J.
Innovatsiya	Kogut-Jaworska, M.; Ociepa-Kicińska, E.

Iqtisodiyot omili. Mintaqa iqtisodiyoti tushunchasi mintaqaviy rivojlanishda markaziy o'rin tutadi va raqobatbardoshlik hududiy darajadagi iqtisodiy raqobatning muhim natijasi sifatida namoyon bo'ladi [18]. Raqobatbardoshlik iqtisodiy va ijtimoiy xarakterdagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga olib, mintaqaviy rivojlanishning ko'p o'lchovli mohiyatini aks ettiradi [16]. Ko'plab tadqiqotchilar raqobatbardoshlik va barqaror rivojlanishni alohida o'rganadilar, biroq ushbu ikki yo'nalishni integratsiya qilish kompleks yondashuvni ta'minlash uchun muhimdir [18]. Mintaqaviy raqobatbardoshlik ko'pincha mintaqaning YaIM (GDP) ko'rsatkichlaridan yuqori natijalarga erishish qobiliyati sifatida ta'riflanadi. Ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda innovatsiya, ta'lim,

institutlar, ijtimoiy birdamlik va ekologik maqsadlar muhim rol o'ynaydi [12]. Raqobatbardoshlikni baholash ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:


- **Kirish (input) bahosi** - xarajatlar, unumdorlik, iqtisodiy tuzilma va salohiyatni hisobga olish;
- **Natija (output) bahosi** - mintaqaning YaIMdan tashqari maqsadlarga erishish qobiliyatini aniqlash [10].

Ba'zi tadqiqotchilar iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalangan holda milliy yoki mintaqaviy iqtisodiyotlarning global YaIMdagi kelajak ulushini baholaydilar [11]. Ishchi yoshdagi aholi jon boshiga YaIM "fundamental raqobatbardoshlik" sifatida talqin qilinib, farovonlikning ikki o'lchovini o'z ichiga oladi:

- yuqori unumdorlikka erishish qobiliyati;
- mavjud ishchi kuchining yuqori ulushini safarbar qila olish qobiliyati [12].

Ushbu yondashuv mintaqalarni raqobatbardoshlik darajasiga ko'ra reytinglash va uning evolyutsiya tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi.

YaIM jon boshiga mintaqaning rivojlanish va boylik darajasini baholashda muhim ko'rsatkich bo'lsa-da, u aholining umumiy farovonligi va hayot sifati haqida to'liq tasavvur bera olmaydi [13]. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, ekologik barqarorlik va inson rivojlanishi kabi boshqa omillar ham aholi turmush darajasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega [14]. Ushbu tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlar dunyoning turli hududlaridan olingan bo'lib, muayyan mamlakat yoki geografik hudud bilan cheklanmagan. Mintaqaviy raqobatbardoshlikni yanada to'liq va aniq baholash uchun iqtisodiy farovonlik bilan bir qatorda ijtimoiy, ekologik va insoniy rivojlanish jihatlarini ham qamrab oluvchi keng ko'lamli ko'rsatkichlarni integratsiya qilish zarur. Shu bois, mintaqaviy raqobatbardoshlikni resurs va salohiyatlardan samarali foydalanish orqali biznes unumdorligi va aholi farovonligini uzluksiz oshirish qobiliyati sifatida ta'riflash mumkin. Mazkur kompleks yondashuv mintaqaviy raqobatbardoshlikni iqtisodiy farovonlik, ijtimoiy barqarorlik va ekologik muvozanatni o'z ichiga oluvchi ko'p o'lchovli tushuncha sifatida ko'radi. YaIM jon boshiga asosiy ko'rsatkich bo'lib qolsa-da, raqobatbardoshlikni chuqurroq anglash uchun ko'plab indeksni birlashtirish talab etiladi.



1-rasm. Mintaqa raqobatbardoshligini oshirish orqali imijini shakllantirish

Ushbu 1-rasm orqali mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichlarida yuzaga keladigan jarayonlar keltirib o'tilgan bo'lib, unda markaziy o'rinni egallagan **shaharning o'zligi**, shahar yoki mintaqaning raqobat ustunligini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Shaharning boshqaruv sifati, tarixiy merosi, madaniy muhiti, targ'ibot strategiyasi, fuqarolarning ijtimoiy xulqi hamda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlar hududning ichki salohiyatini shakllantiradi. Ushbu identitet samarali kommunikatsiya orqali tashqi auditoriyaga yetkazilganda investorlar, turistlar va boshqa manfaatdor tomonlar tomonidan ijobiy qabul qilinadi va natijada shahar imiji shakllanadi. Ijobiy imij esa hududning investitsion jozibadorligini oshirib, iqtisodiy faollikni kuchaytiradi hamda mintaqaning umumiy raqobatbardoshligini mustahkamlovchi strategik resursga aylanadi.

Mintaqaviy raqobatbardoshlikni shakllantiruvchi omillar an'anaviy iqtisodiy ko'rsatkichlardan tashqariga chiqadi [10]. Siyosiy barqarorlik, ijtimoiy inklyuzivlik va madaniy xilma-xillik iqtisodiy faollikni belgilovchi muhim elementlardir. Raqobatbardoshlikni qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratish samarali institutlar, mustahkam boshqaruv va istiqbolli siyosatni talab qiladi [11]. Muvaffaqiyatli mintaqaviy raqobatbardoshlik nafaqat iqtisodiy ishlab chiqarishni maksimal darajada oshirishga, balki xilma-xillik, innovatsiya va moslashuvchanlikni qadrlaydigan ekotizimni shakllantirishga ham bog'liq [12]. Bunday yaxlit yondashuv mintaqalarga uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, aholining turli ehtiyojlarini qondirish hamda milliy va global maqsadlarga hissa qo'shish imkonini beradi. Umuman olganda, mavjud ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyot omili, odatda YaIM jon boshiga bilan bog'liq bo'lsada, mintaqaviy darajadagi kompleks omil sifatida baholanishi uchun ta'lim, sog'liqni saqlash va ekologik barqarorlik kabi ko'rsatkichlarni ham o'z ichiga olishi zarur.

Mehnat bozori omili. Inson kapitalining iqtisodiy o'sishdagi roli keng ko'lamda o'rganilgan. Nelson va Phelps birinchilardan bo'lib inson kapitalining texnologiyani qabul qilish jarayoniga va uning iqtisodiy o'sishga ta'sirini ta'kidlaganlar. Keyinchalik Romer va Lucas inson kapitali konsepsiyasini rivojlantirgan bo'lsa, Barro (1991) hamda Aghion va Howitt (1998) kabi tadqiqotchilar inson kapitali va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tahlil qilganlar. Mintaqaviy iqtisodiyot kontekstida inson kapitali zahirasi mintaqaviy iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida qaraladi. Biroq tadqiqotlar inson kapitalining raqobatbardoshlik va o'sishga ta'siri notekis va assimetrik ekanini ko'rsatadi. Ta'limning iqtisodiy o'sishga ta'siri mamlakat va mintaqalarga qarab farqlanishi mumkin, shuningdek uning hududiy ish haqi va unumdorlikka ta'siri ham teng taqsimlanmaydi. Ispaniya va Janubiy Yevropa mamlakatlaridagi so'nggi tajribalar shuni ko'rsatadiki, faqat ta'lim darajasining yuqoriligi o'z-o'zidan yuqori o'sish sur'atlari yoki past ishsizlik darajasini kafolatlamaydi. Aksincha, ta'lim mintaqaning iqtisodiy tuzilmasi va bozor ehtiyojlariga mos bo'lishi lozim. Bu esa inson kapitalining ish haqi, uy xo'jaliklari daromadi va umumiy iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholashda iqtisodiy tuzilmani hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Ishsizlikni kamaytirish va bozor ehtiyojlariga mos malakali ishchi kuchini shakllantirishga qaratilgan siyosiy chora-tadbirlar tavsiya etiladi. Jumladan, tarkibiy (strukturaviy) ishsizlikni kamaytirish, umrbod ta'limni rivojlantirish, ta'lim tizimi sifatini

oshirish, ijtimoiy inklyuziya va kambag'allikni kamaytirish mehnat bozorini mustahkamlash va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish uchun muhimdir [15].

Ishsizlik va iqtisodiy nafaollik hududiy tafovutlar bilan tavsiflanadi hamda ular iqtisodiy tuzilma, joylashuv omillari va mehnat resurslari xususiyatlari bilan bog'liq. Uzoq muddatli ishsizlik turli iqtisodiy, institutsional va xulq-atvorga oid omillar bilan bog'liq bo'lib, kompleks yondashuvni talab etadi. Yoshlar ishsizligiga mintaqalarning bardoshlilik turlicha bo'lib, har bir hududning o'ziga xos ehtiyoj va muammolarini hisobga olgan holda maxsus dasturlar ishlab chiqish zarur [8].

Kambag'allik va ijtimoiy chetlanish omili. Ijtimoiy chetlanish - jamiyatdagi ayrim guruhlarini zaif holatga keltiruvchi ko'plab omillarni o'z ichiga oluvchi kompleks tushunchadir. Ushbu omillarga ishsizlik, ta'lim, bolalarni parvarish qilish va sog'liqni saqlash xizmatlaridan cheklangan foydalanish, yetarli yashash sharoitlarining mavjud emasligi hamda ijtimoiy hayotda faol ishtirok eta olmaslik kiradi. Ayniqsa mehnat bozorida chetlanish muhim omil sifatida ko'riladi. Ijtimoiy chetlanish Yevropa Ittifoqi institutlari uchun muhim muammo sifatida e'tirof etilgan bo'lib, unga qarshi kurashish uchun turli mexanizmlar ishlab chiqilgan. Ayrim tadqiqotlar YI doirasida ijtimoiy chetlanishga qarshi siyosat choralari baholagan hamda milliy va supramilliy (yuqori darajadagi) vositalarni farqlagan.

Sog'liqni saqlash omili. Sog'liq iqtisodiy nazariyada muhim o'rin tutadi va millatning iqtisodiy farovonligining asosiy tayanchlaridan biri hisoblanadi. Ko'plab tadqiqotlar sog'liqning unumdorlik, daromad va umumiy iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Sog'liqdagi tafovutlar mamlakatlar o'rtasida ham, mamlakat ichida ham mavjud bo'lib, ular geografik farqlar va gender tafovutlar bilan bog'liq. Jamoat salomatligi bo'yicha global muhokamalarga qaramay, sog'liq tengsizliklari va ularning raqobatbardoshlikka ta'siri masalasida hali ham ilmiy bo'shliq mavjud bo'lib, bu yo'nalish zudlik bilan e'tibor talab qiladi. Jamoat salomatligi iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimida muhim o'rin egallab, milliy raqobatbardoshlik bilan chambarchas bog'liq. O'rtacha umr ko'rish davomiyligi sog'liqning muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, ayniqsa nisbatan kam raqobatbardosh iqtisodiyotlarda (masalan, Xorvatiya, Meksika, Polsha va Ruminiya) alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqori umr davomiyligi inson kapitalining raqobatbardoshligini oshiradi va mamlakatning Global Competitiveness Index (GCI), Human Development Index (HDI), YaIM va gender tengligi kabi ko'rsatkichlardagi o'rnini yaxshilaydi.

Ta'lim omili. Ta'lim sohasining, ayniqsa oliy ta'limning rivojlanishi mintaqaviy raqobatbardoshlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi hamda aholi joylashuv tuzilmasiga ham ta'sir etadi. Globallashuv sharoitida oliy ta'lim tizimi inson kapitali sifatini oshiradi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi va iqtisodiy raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi.

Oliy ta'lim muassasalari ilmiy-tadqiqot markazlari sifatida turli iqtisodiy tarmoqlarda innovatsiyani rag'batlantirish va global raqobatbardoshlikni oshirish salohiyatiga ega. Zamonaviy "bilimlar iqtisodiyoti" sharoitida universitetlar sifatli ta'lim berish va innovatsion faoliyat orqali mintaq va davlatlarning iqtisodiy raqobatbardoshligiga sezilarli hissa qo'shadi. Oliy ta'lim muassasalari va ularni o'rab

turgan iqtisodiy muhit o'rtasidagi o'zaro aloqalar o'zaro manfaatli bo'lib, umumiy raqobatbardoshlikni oshiradi.

Atrof-muhit va energetika omili. Zamonaviy ekologik muammolar inson va atrof-muhit o'rtasidagi sanoatlashtirish jarayonida shakllangan o'zaro ta'sirlar natijasidir. Iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhit sifati o'rtasidagi bog'liqlik ko'p tarmoqli ilmiy e'tibor markazida turadi. Davlatlar va mintaqalar barqaror, kam uglerodli sanoat taraqqiyotiga erishish uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish orqali raqobatbardoshlikni oshirishga intilmoqda. Bu esa qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan mas'uliyatli foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va barqaror energiyadan teng foydalanishni ta'minlashni talab etadi.

Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish davlat va xususiy sektor institutlari hamda sanoat tarmoqlari tomonidan resurslardan samarali foydalanish va kam emissiyali rivojlanish yo'llarini baholashni taqozo etadi. Tabiiy resurslardan foydalanish va ekologik ta'sirni iqtisodiy o'sishdan ajratish (decoupling) ortib borayotgan resurs iste'molini cheklash uchun muhimdir.

Ekologik strategiyalar tabiiy boyliklarni saqlash, boshqarish va himoya qilish choralari o'z ichiga oladi, shuningdek barqaror turizm va mahalliy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Atrof-muhitga mas'uliyatli qarorlar qabul qilish keng qamrovli ekologik ta'lim va jamiyatning faol ishtirokiga tayanadi. Davlat boshqaruvi, ilmiy muassasalar va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlik ekologik jihatdan ongli va barqaror kelajakni ta'minlashda muhimdir. Mavjud ma'lumotlar ekologiya va energetika sohalarida asosli siyosat ishlab chiqish hamda hamkorlikdagi harakatlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Yashil, sog'lom va barqaror kelajakni ta'minlash uchun iqtisodiy siyosatdagi noaniqlik va ekologik ifloslanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur o'rganish lozim. Ekologik va energetik innovatsiyalarni samarali rivojlantirish maqsadida davlatlar siyosatni markazsizlashtirish, xususiy sektorning qayta tiklanuvchi energiyaga ajratadigan mablag'larini rag'batlantirish hamda globallashtirish jarayonlarini oqilona tartibga solishni ko'rib chiqishlari zarur.

Transport omili. Infratuzilma iqtisodiy o'sishning asosi bo'lib, mintaqaviy raqobatbardoshlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Transport infratuzilmasining holati - uning tuzilishi, bog'lanish darajasi, texnik parametrlari va sifati - ajratiladigan mablag'lar va transport turlarining (modal) tuzilmasiga bog'liq. So'nggi tadqiqotlar transportning barqarorlik va ekologik jihatlariga ko'proq e'tibor qaratmoqda. Sifatli transport infratuzilmasi iqtisodiyotning samarali ishlashini ta'minlab, tovar va xizmatlarning xavfsiz hamda tezkor yetkazilishini kafolatlaydi. U ijtimoiy-iqtisodiy o'sishning poydevori bo'lib, investorlarni jalb etadi va aholi turmush darajasini oshiradi. Transport tizimlari va hududiy harakatlanish tuzilmalari iqtisodchilar Pol Krugman va Maykl Porter o'rtasidagi munozaralar kontekstida raqobatbardoshlik bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Transport va AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) infratuzilmasini o'z ichiga olgan bog'lanish (connectivity) mintaqaviy iqtisodiy raqobatbardoshlikning asosiy omillaridan biridir. Transport sektori iqtisodiy farovonlik va rivojlanishni shakllantiradi, iqtisodiy ortga qaytish va qo'shimcha xarajatlarning oldini oladi.

Mavjud ma'lumotlar barqaror rivojlanish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun transport sohasida puxta rejalashtirilgan strategiyalar va infratuzilma investitsiyalari zarurligini

ko'rsatadi. Iqtisodiyotni rag'batlantirish asosiy siyosiy maqsad bo'lsa-da, qaror qabul qilish jarayoni ko'pincha yetarli ilmiy asosga ega emas. Transport tadqiqotlari va siyosiy geografiya transport va iqtisodiyot o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni tushuntirishga intiladi.

Fan/tehnologiya va raqamli jamiyat omili. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, Yevropa Ittifoqining asosiy maqsadlaridan biri raqobatbardoshlikni oshirish uchun ilmiy tadqiqotlarga investitsiyalarni kengaytirishdir. OECDga ko'ra, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (R&D) - bu bilimlarni kengaytirish va ularni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (R&D) xarajatlari hamda ularning intensivligi ko'rsatkichlari siyosatchilar va innovatsiya tahlilchilari tomonidan iqtisodiy o'sish, unumdorlik va raqobatbardoshlikning asosiy omillari sifatida e'tirof etiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektorining jadal rivojlanishi global miqyosda jamiyat va bandlik tuzilmasida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. AKTning innovatsion tizimlarga integratsiyalashuvi mintaqaviy va milliy iqtisodiyotlarning umumiy raqobatbardoshligi uchun muhim ahamiyatga ega. Yuqori texnologiyali sanoatning rivojlanishi esa mintaqaviy va sanoat raqobatbardoshligining tayanch omili bo'lib, millatning innovatsion salohiyatini mustahkamlaydi. Ilmiy-texnik sohadagi inson resurslari, patentlar, ilmiy nashrlar va R&D xarajatlari kabi ko'rsatkichlar mintaqaning ilmiy-tadqiqot va innovatsion salohiyatini ifodalaydi. Inson kapitali R&D investitsiyalarini to'ldiruvchi muhim omil bo'lib, doimiy g'oya yaratish va bilimlarni kengaytirish jarayonini ta'minlaydi. Bilimga asoslangan sanoat tarmoqlari R&Dga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalarning bevosita ijobiy natijalarini namoyon etadi.

Empirik tahlillar innovatsiya va R&D o'rtasida ijobiy o'zaro bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi, bunda ayniqsa biznes sektoridagi R&D eng kuchli ta'sirga ega. Xususiy korxonalar innovatsiya orqali taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, bozor mexanizmlari va tarmoq tajribasining muhimligini tasdiqlaydi. Shu bois biznes, davlat va oliy ta'lim sektorlarining R&D faoliyati o'rtasida ko'p tarmoqli hamkorlikni rivojlantirish zarur. Bunday hamkorlik umumiy o'sish va farovonlik sari jamoaviy sa'y-harakatlarni tezlashtiradi. Mavjud ma'lumotlar R&D, innovatsiya va iqtisodiy taraqqiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'kidlaydi. Texnologiya, fan va raqamli jamiyat birlashgan holda barqaror, texnologik jihatdan rivojlangan kelajakni shakllantiradi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Yuqori texnologiyali sanoat omili. Yuqori texnologiyali sanoat (high-tech industry) zamonaviy iqtisodiyotning transformatsion kuchi sifatida mamlakatlar rivojiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Doimiy texnologik yangilanish va kapital konsentratsiyasi bilan tavsiflanadigan ushbu sektor raqobat ustunligini ta'minlashda innovatsiyaning ustuvor ahamiyatini namoyon etadi. Yuqori texnologiyali mahsulotlarning hayotiy sikli qisqa bo'lgani sababli, innovatsiya ilg'or g'oyalar ustuvor bo'lgan muhitda taraqqiyotning asosiy drayveriga aylanadi. Doimiy o'zgaruvchanlik sharoitida yuqori texnologiyali sektor moslashuvchanlikni talab qiladi va bu inson tafakkuri hamda texnolog mutaxassislarning strategik qarashlari bilan bog'liq. Maxsus bilim va innovatsion tafakkurga ega inson kapitali mamlakatning raqobat salohiyatini shakllantiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Yuqori texnologiyali mahsulotlar, innovatsiya va inson kapitali o'rtasidagi simbiotik

aloqadorlik milliy iqtisodiy taraqqiyotning asosini tashkil etadi. Innovatsiya ko'pincha individual salohiyat va ijodkorlikka tayanganligi sababli, davlatlar texnolog mutaxassislarni tayyorlash, qo'llab-quvvatlash va erkin ijodiy muhitni shakllantirishga katta e'tibor qaratadi. Ushbu integratsiyalashgan tizim iqtisodiy rivojlanishni barqaror va uzluksiz jarayonga aylantiradi. Mavjud ma'lumotlar mintaqaviy darajada barqaror kelajakni ta'minlash uchun yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilash zarurligini ko'rsatadi. Mahalliy va mintaqaviy sharoitlarni hisobga olgan holda maqsadli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim. Tahlil biznes, ta'lim va davlatning R&Dga ajratadigan mablag'lari o'rtasida kuchli komplementarlik mavjudligini ko'rsatadi, shu bilan birga texnologik/innovatsion siyosat va sanoat siyosati o'rtasida ayrim nomuvofiqliklar mavjud.

Innovatsiya omili. Kam rivojlangan hududlarda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun mintaqaviy siyosat innovatsiyani ustuvor yo'nalish sifatida belgilashi lozim. Savdo va investitsiya integratsiyasi ikki tomonlama imkoniyat yaratadi: bir tomondan, mahalliy korxonalar uchun bozor imkoniyatlarini kengaytiradi, ikkinchi tomondan esa xalqaro raqobat, yangi tajriba va ilg'or texnologiyalar kirib kelishi orqali unumdorlik va innovatsiyani rag'batlantiradi.

Biroq "aqli ixtisoslashuv" (smart specialization) yondashuvi ko'pincha tadbirkorlik ekotizimida davlat ilmiy-tadqiqotining muhim rolini yetarlicha hisobga olmaydi.

Xulosa va takliflar

Mintaqaviy raqobatbardoshlik farovon va barqaror jamiyatlarni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Iqtisodiyot, mehnat bozori dinamikasi, ta'lim infratuzilmasi, texnologik taraqqiyot va ilmiy rivojlanish kabi asosiy omillar kam rivojlangan hududlarda umumiy farovonlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, kambag'allik, ijtimoiy inklyuziya, sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, ekologik barqarorlik, transport, raqamli jamiyat, yuqori texnologiyali sanoat va innovatsiya iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayverlari sifatida namoyon bo'ladi. Biroq inklyuziv iqtisodiy o'sishga erishish hanuz murakkab masala bo'lib qolmoqda. Iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlik o'rtasida muvozanatni ta'minlash ustuvor vazifadir. Kam uglerodli sanoat rivoji, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va iqlim o'zgarishini yumshatish strategiyalari markaziy o'rinni egallaydi. Aholi zichligi, yer resurslaridan foydalanish va havo sifati bilan bog'liq siyosat choralarining samaradorligi barqaror rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsiya, kuchli ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (R&D) hamda malakali inson kapitali bilan qo'llab-quvvatlangan holda, iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Biznes, davlat institutlari va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik innovatsion ekotizimni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, hamkorlikni rag'batlantirish, texnologik kompetensiyalarni oshirish va bilim almashinuvini kuchaytirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Mintaqaviy rivojlanish murakkab va o'zaro bog'liq tizim sifatida namoyon bo'ladi:

- Transport infratuzilmasiga puxta rejalashtirilgan investitsiyalar, shuningdek R&D, innovatsiya va iqtisodiy taraqqiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlik barqaror o'sish uchun zarur. Iqtisodiy omillar ta'lim, sog'liqni saqlash va ekologik barqarorlik ko'rsatkichlari bilan kengaytirilishi lozim.

• Ijtimoiy inklyuziyani ta'minlash va ijtimoiy chetlanishni kamaytirish uchun ko'p o'lchovli yondashuvlar zarur. Mehnat bozorida, ayniqsa yoshlar bandligi bo'yicha tafovutlarga alohida e'tibor qaratish kerak.

• Sog'liqning iqtisodiy farovonlikdagi hal qiluvchi roli sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyati va umr ko'rish davomiyligini oshirish muhimligini ko'rsatadi. Sog'liq infratuzilmasini takomillashtirish ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

• Oliy ta'lim, R&D va innovatsiya mintaqaviy raqobatbardoshlikning asosiy tayanchidir. Maqsadli moliyalashtirish va ta'lim hamda innovatsiyaga investitsiyalar farovonlik va raqobat ustunligini mustahkamlaydi.

• Ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni hisobga olgan holda, yanada asosli siyosat va hamkorlikdagi harakatlar yashil va sog'lom kelajakni ta'minlaydi.

• Iqtisodiy o'sish va bandlik imkoniyatlari hududiy xususiyatlarni inobatga olgan moslashuvchan siyosat asosida shakllantirilishi lozim. Yuqori texnologiyali sanoatning rivojlanishi barqaror va global raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

• Iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda mintaqaviy subyektlar va jamiyatning faol ishtiroki muhimdir. Muvofiqlashtirilgan strategiyalar va infratuzilma investitsiyalari global raqobat sharoitida zarurdir.

Tadqiqot natijalari mintaqaning raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillarni yoritib beradi. Iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarning o'zaro bog'liqligi muvaffaqiyatli jamiyatlarni shakllantirishda asosiy omil ekanligi tasdiqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Judrupa, I. Regional Competitiveness as an Aspect Promoting Sustainability of Latvia. *Eur. J. Sustain. Dev.* 2021, 10, 650.
2. Voikina, E.A.; Potravny, I.M. Green Employment and Labour Market in the Formation of Environmentally Friendly Economy. *St. Petersburg Univ. J. Econ. Stud.* 2018, 34, 217–240.
3. World Economic Forum. The Global Competitiveness Report 2011–2012; World Economic Forum: Geneva, Switzerland, 2011; Volume 5.
4. Storper, M. The Regional World: Territorial Development in a Global Economy; Guilford Press: New York, NY, USA, 1997.
5. Huggins, R. Creating a UK Competitiveness Index: Regional and Local Benchmarking. *Reg. Stud.* 2003, 37, 89–96.
6. Bilbao-Terol, A.; Arenas-Parra, M.; Onopko-Onopko, V. Measuring Regional Sustainable Competitiveness: A Multi-Criteria Approach. *Oper. Res.* 2019, 19, 637–660.
7. Marin, A.; Boant, L.F.; T, elinoiu, A.; Darie, G.; Din, M.A. Supporting entrepreneurship and innovation in higher education in romania. In *Proceedings of the ICERI2018 Proceedings*, Yogyakarta, Indonesia, 30–31 August 2018; Volume 1.
8. Meir, S.; Dennis, C.A. Making Sense of Lifelong Learning. In *PCET: Learning and Teaching in the Post Compulsory Sector*; Sage: Thousand Oaks, CA, USA, 2022.

9. Huggins, R.; Izushi, H.; Thompson, P. Regional Competitiveness: Theories and Methodologies for Empirical Analysis. *J. Centrum Cathedra (JCC) Bus. Econ. Res. J.* 2013, 6, 155–172.
10. Poveda, C.A. Using multi-criteria decision-making to assess the importance of human capital in meeting the goals and objectives of sustainable development: An application of the analytic hierarchy process. *Int. J. Anal. Hierarchy Process* 2023, 15.
11. Bharti, N. Microenterprise Development through Organisational Interventions: A Comparative Study of Holistic and Building Human Capital Approach in India. *Int. J. Bus. Glob.* 2019, 22, 98731.
12. Nickolas, S. What Is the Relationship between Human Capital and Economic Growth? *Macroeconomics* 2019.
13. Raghupathi, V.; Raghupathi, W. Healthcare Expenditure and Economic Performance: Insights From the United States Data. *Front. Public Health* 2020, 8, 156.
14. DeVries, E.; Kathard, H.; Müller, A. Debate: Why Should Gender-Affirming Health Care Be Included in Health Science Curricula? *BMC Med. Educ.* 2020, 20, 51.
15. Bertoletti, A.; Berbegal-Mirabent, J.; Agasisti, T. Higher Education Systems and Regional Economic Development in Europe: A Combined Approach Using Econometric and Machine Learning Methods. *Socioecon. Plann. Sci.* 2022, 82, 101231.
16. Intergovernmental Panel on Climate Change Climate Change Information for Regional Impact and for Risk Assessment. In *Climate Change 2021-The Physical Science Basis*; OECD iLibrary: Berlin, Germany, 2023.
17. Yang, X.; Zhang, H.; Lin, S.; Zhang, J.; Zeng, J. Does High-Speed Railway Promote Regional Innovation Growth or Innovation Convergence? *Technol. Soc.* 2021, 64, 101472.
18. Gavurova, B.; Rigelsky, M.; Mikeska, M. Relationships between Road Transport Indicators and Expenditure of Visitors in the Context of European Countries' Tourism Competitiveness. *Equilibrium. Q. J. Econ. Econ. Policy* 2023, 18, 393–418.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

